**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUSTA'LIMVAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**«LIBOSLAR DIZAYNI» KAFEDRASI**

**Raupova Nasiba**

# Transformatsiya usulida o`smir qizlar ustki kiyimlari to'plami dizayn loyihasini ishlab chiqish

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar:

dots. Yunusxodjayeva X.M.

«____»___________2015 y.

**TOSHKENT 2015**

**Mundarija:**

**Kirish.........................................................................................................1**
**1. Loyiha oldi qismi......................................................................................5**
1.1. Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish...................................................5
1.2. Ayollar liboslari bo'yicha istiqbolli moda yo'nalishi tavsifi.......................8
1.3. Marketing tadqiqotlar. .......................................... ...............................11
1.4. Ayollar liboslar to'plamiga qo'yiladigan talablar. ....................................13
1.5. Ijodiy manbaani tanlash, asoslash va uslublash. .......................................15
**2. Loyiha qismi...........................................................................................18**
2.1. Eskiz loyihalash......................................... ..........................................18
2.1.1. Kolleksiyani kompozitsion yechimi va koloristik qatorini tanlash. ...........18
2.1.2. Yakunlovchi eskizlarni yaratish va modellarni texnik tavsifini ishlab chiqish......................................... .......................................... ..................22
2.1.3. Texnik eskizlarni yaratish.......................................... ...........................32
2.2. Kolleksiyani loyihalash usulini tanlash va asoslash....................................35
2.3. Konstruktor - texnologik qism. .......................................... .....................36
2.3.1. Kolleksiya uchun materiallar paketini konfeksiyalash. .............................36
2.3.2. Konstruksiyalash usulini tanlash va asoslash. ..........................................39
2.3.3. Buyum asosiy detallar chizmalarini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar..40
2.3.4. AK va BK hisobi va qurish.......................................... .........................42
2.3.5. AK va BK konstruktiv - dekorativ modellashtirish..................................46
2.3.6. Ishchi hujjatlarni ishlab chiqish. .......................................... ................50
2.3.6.1. Yangi modellar andozalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi...................50
2.3.6.2. Andozalar joylashmasi.......................................... ..........................54
2.3.7 Texnologik ishlov berish xususiyatlari......................................................55
2.4. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish...............................................56
2.4.1. Nom tanlash (Brand-name).......................................... ......................56
2.4.2. Kolleksiya reklama loyihasini ishlab chiqish. ........................................57

**3. Ekologik qism.......................................... ................................................59**
**Xulosa.......................................... ................................................................62**
**Adabiyotlar ro'yxati.......................................... ..........................................63**
**Ilova.......................................... ..................................................................65**

# Kirish

Bugun mamlakatimiz to‘qimachilik va tikuvchilik-trikotaj sanoati korxonalarining katta qismini 270 korxona va tashkilotni o‘zida birlashtirgan “O‘zbekengilsanoat” davlat aksiyadorlik kompaniyasi korxonalari tashkil etadi. Ular orasida O‘zbekistonda xorijiy kapitalni himoya qilish bo‘yicha yaratilgan me’yoriy-huquqiy baza, pirovardida samarali hamkorlik uchun asos bo‘lib xizmat qilayotgan imtiyoz hamda preferensiyalar tizimi tufayli tashkil qilingan qo‘shma korxonalarham ko‘p.[1]

Biz mamlakatimizni isloh etish va yangilash borasidagi ishlarimizni davom ettirish va yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, xalqimizning hayot darajasi va sifatini izchil yuksaltirib borish bo‘yicha 2015-yilda va undan keyingi yillarda o‘z oldimizga yuksak, ayni vaqtda aniq maqsad va vazifalarni qo‘ymoqdamiz.

Respublikamiz taraqqiyotida hozirgi kunda har qaysi soxa oldida murakkab mislsiz yangi vazifalar qoyilda.

Yengil sanoat soxasida o`zgarishlar korxonalarni qayta qurish va yangi uskunalar bilan taminlash ishlab chiqarishning zamonaviy uskunalari bilan taminlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta’minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o‘rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so‘z yuritish mumkin emas. Ma’lumki, O‘zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslarining, masalan, paxta va boshqa turdagi xomashyolarning narxi keskin tushib ketgan holatlarni ko‘p marotaba boshidan kechirgan. Shu bilan birga, to‘qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xomashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta’minlash, bo‘yalgan ip-kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o‘zlashtirish

asosida, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erisha olamiz. [2]

Mustaqillik davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotimizda jiddiy o`zgarishlar ro`y berdi. Hozir xam bu jarayon davom etmoqda.Bunda tabiyki yengil sanoat va moda industriyasi dizaynerlarning faoliyati ham mustasno emas. Bugungi kun o`zbek dizaynerlarining faoliyati jiddiy sifat o`zgarishlarini boshdan kechirmoqda. Yuqori sifat va mukammal dizan asosida yaratish bugungi kunning dolzarb masalaladidan biridir. Kiyim yaratishda turli yoshdagi turli xarakterdagi insonlarning didiga moslab maxsulot dizaynini ishlab chiqish xar -bir dizaynerdan katta mahorat va sabr toqatni talab etadi.Ayniqsa o`smir yoshlarning xarakteri, talab va extiyojlari xilma-xil va o`zgachadir.O`smir yoshlarning qanday kiyinish masalasi ilgarigi zamonda xam , xozirgi kunda xam turli baxslarga sabab bo`lmoqda. Xalqimizning ,,Kiyimga qarab kutib olinadi, odobiga qarab kuzatiladi`` degan ajoyib maqoli bejiz aytilmagan. Shundan kelib chiqib qaraydigan bo`lsak kiyim insonlarning odobi, yurish turishi, saviyasini, madaniy darajasini namoyon etadi.Insonning shaxsi va kiyinishi o`zaro uyg`unlikni kasb etishi kerak.Tog`ri o`smir yoshdagi o`gil-qizlar yaxshi kiyinishni istaydi, zamonaviy va chiroyli kiyinishni xoxlashadi. Lekin bu kiyinish xar qancha chiroyli bo`lmasin milliy mentalitetimizdan uzoqlashmagan xolda, uning talablarini buzmagan xolda bo`lishi kerak. Shuningdek kiyimlar iqlimga tabiiy geografik sharoitga mavsumga mos xolda insonlarni quyosh nurilaridan va sovuq xavodan xamda yomg`irdan ximoya qilishga mo`ljallangan bolishi kerak.

Dolzarbligi.Yuqorida aytib o`tilganlardan kelib chiqib, yani ham milliy mentalitetimiz me`yorlarini buzmagan holda ham o`smirlarning xilma –xil va o`ziga xos, betakror talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ushbu bitiruv malakaviy ishida transformatsiya usulida liboslar to`plami yaratildi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida bir turdagi, bir xil o`lchamdagi liboslarning shaklini o`zgartirish orqali ham kastyum , ham nimcha , ham plash va shunga o`xshash o`zgarishlar yani kiyimlarning yoqali yoki yoqasiz ko`rinishlarga kelishi, bir turdagi

plashning kastyum va yubka ko`rinishiga kelishi bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari:

O`smir yoshdagi qizlar plashlarini transformatsiya usulida ikki xil rangdagi loklangan charm matolari asosida ustki kiyimlar yaratish bitiruv malakaviy ishining maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quidagi vazifalar bajarildi.

Kolleksiya konsepsiyasini ishlab chiqish;

Transformatsiya usulida o`smirlar kiyimi uchun istiqbol moda yo'nalishini tahlil etish;

Marketing tadqiqotlarini olib borish;

Berilgan kiyim assortimenti bo’yicha liboslar to’plamiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqish:

Ijodiy manbani tanlash va asoslash;

Kolleksiyani kompozition yechimini va koloristik qatorini ishlab chiqish;

Kolleksiyani loyihalash usulini tanlash

# 1. Loyiha oldi qismi

## 1.1.Kolleksiya konseptsiyasini ishlab chiqish

Kostyum dizaynida mavjud konsepsiyalar, odatda, o'z davr dizayning asosiy muammolarini oqimidadir va turmush tarzini o'zgarish umumiy rag`batlari bilan bog`lanishidadir. Ammo, bu umumiy rag`batlar dizaynda xar hil mualliflar konsepsiyalarida o'zlashtiriladi, ya'ni dizaynerlar buyumning funksiyasiga o'zgacha qarashadi, garderobni ta'minlash turli konsepsiyalarini tarafdorlari bo'ladi, xar hil shakllantirish usullarni qo'llashadi, turli turmush tarzda yashayotgan insonlarga o'z kiyimini taklif etishadi.Bundan tashqari, kiyim dizaynini o'ziga hosligi shundaki, konsepsiya matnda emas, balki vizual shaklda o'z ifodasini bayon etadi.Modani mavsumiy o'zgarish ritm an'anasi kiyim dizaynida ijodiy konsepsiyasini asosiy o'zlashtirish shakli - modellar namoyishdir.

Xar bir kolleksiya yaratilishidan oldin turli fikrlar tug`iladi. Fikirlar yig`lib malum bir g`oyani tashki qiladi.Konsepsiyani asosini tayanch nuqtasida g`oya turadi.Ushbu bitiruv malakaviy ishini asosiy g`oyasini yani konsepsiyasini transfarmasiya tashkil qiladi.

Transformatsiya - bu buyum shakli va xajmini xar hil usulda biriktirish, joyini o'zgartirish, ayrim detallarni almashtirish xisobiga o'zgartirish. Boshqacha aytganda, buyum loyixasiga qandaydir qo'zg`aluvchanlikni asos qilinadi, chunki iste'molchining xamkorligi nazarda tutiladi.

Ushbu konseptsiya kolleksiya loyihalash jarayoninig asosiy qismidir . Transformasiya usulidan foydalanib loyihalanayotgan har bir model o`ziga xosligi shakli va bajaradigan funksiyasining o`zgarishini ko`rishimiz mumkin. Transformasiya usuli ustki kiyimlarda turli shakl o`zgarishlarini 1-2 rasmlarda ko`rishimiz mumkin.Ushbu rasmlarda mo`lniya tasmasi va tugmalar orqali kiyimda shakl o`garishlarini bajariladi.




1-rasm




2-rasm

## 1.2. O`smir yoshdagi qizlar ustki kiyimlari to`plami bo`yicha modani istiqbol yo`nalishi

Milan, Nyu-York, London va Parijda bo'lib o'tgan moda haftaligi, kelasi mavsumda nimalar, qanday uslub va qanday kostyumlar modaga kirishi haqida tushuncha berdi desak ham bo'ladi.

O`smirlar modasi xam kattalarnikidan qolishmaydi. Shu sababli ham jaxonning mashhur dizaynerlari, turli uslub va ranglar uyg'unlashuvini sinab ko'rishni taklif qolishmoqda kattalarnikiga xos jiddiylik, oddiylik yaqqol ko'zga tashlanadi. Keling yaxshisi shu xususida batafsil to'xtalib o'tamiz.2015-2016 yilgi mavsumda ikki qarama qarshi holatdagi tendensiyalar va ranglar uyg'unligini ko'rishimiz mumkin. Bir tomondan bolalar libosida qora, oq, kulrang ranglar ustunlik qilib oldi. Bu esa bolalarning yorqin ranglarga burkangan moda olamida butunlay yangi burilish yasadi.Buni esa 3-5 suratlarda ko`rish mumkin.





3-rasm.4-rasm.




5-rasm

O`smir yoslar kiyimlarida birmuncha nomutanosiblikni  ko`rishimiz mumkin, xar-bir kiyimda bir necha uslubning uyg`unlashuvi ranglar esa bazida juda bo`g`iq bazan esan bir –biriga nomutanosib yorqin ranglardan iborat kiyimlarni ko`rishimiz mumkin. Quida keltirilgan 6-7 rasmlar esa bunga yaqqol misol bo`ladi.




6-rasm




**7**-rasm.

### 1.2.1.O`smir qizlar plashi bo`yicha istiqbolli moda yo`nalishi tavsifi

Marketing tadqiqot va bozorni o'rganishdan asosiy maqsad iste`molchilarni didi va talabini qanday uslubdagi mahsulotlar ko'proq yoqishi va haridorligi o'rganib, tahlil qilishdan iborat.

Xalqni iste`mol mollari bilan taminlashda tikuvchilik sanoati yangi sanoat tarmoqlari ichida eng yetakchi o'rinda turadi.

O'zbekiston xalqini yuqori sifatli, turli asortimentdagi kiyimlar bilan ta'minlash uchun buyurtmalar modaga mos va yuksak didli kiyimlarga buyurtma qabul qilib tikadigan korxonalar mavjud.



8-rasm

Mahsulot sifatini idora qilish unga ta'sir etuvchi omillarni tinimsiz nazorat qilib mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarish va iste`mol jarayonida yetarlicha sifat darajasini taminlab turish.

Eksportga tayyorlanayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligiga va patent jihatidan tozaligi muhim axamiyat kasb etadi. Kiyim sifatiga oid ijtimoiy

ko’rsatkichlardan o’lcham 12 abo’ylar asortimentidan xaqiqiy extiyojlar xajiga muvofiqligi muhim hisoblanadi.




9-rasm

Hozirgi kunda bizning bozorlarimizda bolalar va o`smirla kiyimlariga talab yanada kuchaymoqda, shu sababli yurtimizda osmirlar va bolalar kiyimlari ishlab chiqarishga talab yanada ortmoqda va bozorlarimizda shu turdagi kiyimlar soni yanada ortib bormoqda. Bozorlardagi  kiyimlarning ko`p qismi yuqori sifatli matodan va so`nggi modadagi kiyimlarni tashkil qiladi 8-9rasmlar bunga misol bo`ladi.

## 1.3.O`smir yoshdagi qizlar ustki kiyimlari to`plami bo`yicha buyumlarni o`xshash modellarni taxlil etish

Ushbu mavsumda bir necha taniqli dizaynerlar bor e`tiborlarini laklangan sun`iy charm matolariga qaratmoqda. Bu matolardan bahor-kuz mavsumiga ustki liboslar to`plamini yaratishmoqda10-12 rasmlar. Agarda, berilgan assortiment bo'yicha o'xshash modellarni ko'rib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, bularga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Moda namoyishlarining 2015 yil bahor-kuz mavsumi uchun podyumga chiqqan ko`p kolleksiyalarda buni yaqqol ko`rish mumkin.



10-rasm.



11-rasm.



12-rasm.

Hozirgi kunda modada ko`plab o`zgarishlar, noananaviy usullardan foydalanishlarni ko`rishimiz mumkin. Bunday usullardan biri Traformatsiya usulidir. Ushbu usuldan foydalangan holda bir nechta mashxur dizaynerlar o`z kolleksiyalarini taqdim etishdi. 13-rasm Dizayner Huseyn Chalayan



13-rasm.

Transformasiya usulida yaratigan kiyimlar malum funksiyani bajarishi masalan ustki kiyim kurtkalarning 14-rasm turli shakldagi sumkalarga 15-17 rasmlar aylanishini ko`rishimiz mumkin.





14-rasm.15-rasm.



16-rasm



17-rasm

## 1.4.O`smir yoshdagi qizlar ustki kiyimlari to`plami uchun buyumga qo`yiladigan talablar

Estetik ko'rsatkichlar-kiyimni shaxsiy iste'mol predmeti sifatida baholashda o'ziga xos ahamiyatga ega. Estetik xususiyatga ega bo'lmagan kiyim foydasiz buyumga aylanadi, chunki u o'z maqsadli funksiyasini — insonning estetik talabini qondiradigan o'ziga xos xususiyatni bajara olmaydi.

Estetik ehtiyoj, go'zallik qonunlariga ko'ra, insonning go'zallikkava ijodga bo'lgan talablarini bildiradi. Kiyim muayyan davrga xosyetakchi badiiy tarzlarga mos loyihalanadi.

Estetik ko'rsatkichlar sinfi uch guruhga bo'Iinadi: zamonaviy uslubva modaga mosligi; modelkompozitsiyasining mukammallik darajasi; buyumning xaridorgir ko'rinishi

Arxitektonika shaklning yaxlitligini (ya'ni vazifasi, shakli, qism-larining o'zaro nisbati, buyumning ichki tuzilishini) bildiradi.

Kiyim nafosatining ifodalanish darajasi barcha konstruktiv elementlarning nafisligini aniqlaydi. Shakl tektonikasi buyum shakli, konstruksiyasi, materiallar xususiyatlarining o'zaro bog'lanishi va uyg'unlashuvidir.

Kiyimning estetik ko'rinishi barcha konstruktiv elementlarning (detallar simmetrik joylanishi, biriktiruvchi va bezatuvchi choklarning ravonligi, astarning sifati va buyumning rangiga mosligi va h.k) o'ziga xos yechimi, ifodaliligi, buyumning xaridorgir ko'rinishini ta'minlaydigan elementlari majmuiga (firma savdo belgisi, yorliq, upakovkaga) bog'liq. Ta'kidlanganidek, buyumning xaridorgir ko'rinishi to'rtinchi bosqichda tashqi ko'rinish, ichki bezaklarva firma belgilarining ifodaliligi ko'rsatkichlari yordamida baholanadi.

Funksional ko'rsatkichlarkiyimning asosiy vazifasiga, iste'molchining tashqi ko'rinishiga va uning psixologik xususiyatlariga mosligini bildiradi. Buyumning barcha xossalari uning vazifasiga bog'liq holda tanlansa, buyum insonning ehtiyojini qondira oladi. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yiladigan talablarni shakllantira oladi. Odamlarning yoshi, o'lchamlari, to'lalik guruhlari ichida tashqi ko'rinishi

vapsixologik tuzilishida keskin farqlanish mavjudligi bois bir xil vazifali kiyim ham ushbu guruhlarga mansub bo'lgan xususiyatlar hisobga olingan holda loyihalanadi.

Funksional ko'rsatkichlar uchinchi bosqichda ikki guruh ko'rsatkichlari yordamida yoritiladi: buyumning muayyan maqsadga mosligi va iste'molchining razmeri, yoshi va to'lalik guruhi xususiyatlariga mosligi.

Buyumning muayyan maqsadga mosligini to'rtinchi bosqichda quyidagi ko'rsatkichlar aniqlaydi: kiyimning zamonaviy hayot tarziga (ya'ni, zamonaviy transport vositalariga, arxitektura va maishiy sharoitga) moslik darajasi va kiyimning aniq ekspluatatsiya sharoiti hamda odam faoliyatining turiga munosibligi.

Iste'molchining o'lchami, yoshi va to'lalik guruhi xususiyatlariga mosligi to'rtinchi bosqichda quyidagicha bo'linadi: shaxsning tashqi ko'rinishiga mosligi hamda shaxsning yoshi va psixologik xususiyatlariga mosligi.

Ergonomik ko'rsatkichlar buyumning insonga moslashganlik darajasini bildiradi. Ergonomika *(ergon* — mehnat, *nomos* — qonun) insonni muayyan faoliyat sharoitida o'rganadigan hamda inson, buyum va atrofdagi muhitning o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini o'rganadigan ilmiy fandir.

Kiyim inson tanasining 80 foizini bekitib, unda psixofiziologik taassurot (kayfiyat, toliqish xususiyati, issiqlik, sovuq, komfort, qulaylik, bosim va h.k.) uyg'otadi.

Kiyim konstruksiyasining sifatini aniqlashda «qulay» va «komfort» degan tushunchalar mosroq tuyuladi. Lekin, inson noqulay kiyimga o'rganib, uni qulay hisoblashi mumkin. Shu bois, inson — kiyim tizimini baholashda aniqroq standart ko'rsatkichlari qo'llaniladi: antropometrik gigiyenik, psixofiziologik. Kiyim loyihalashda antropometrik ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Odamning kiyim bilan kontakti tinch holat (statika)da va harakatda (dinamika)da farqlanadi. Shu bois antropometrik moslik to'rtinchi bosqichda statik moslik va dinamik moslik ko'rsatkichlariga bo'linadi. Statik moslikning antropometrik ko'rsatkichlari 5-darajada quyidagicha baholanishi mumkin: ekspluatatsiya

jarayonida kiyim detallarining materiallarida deformatsiya darajasi;qo'llar ko'tarilgan vaziyatda buyum etagining siljishi.

Gigiyenik sifat ko'rsatkichlari sanitariya va gigiyena me'yorlariga moslikni xarakterlab, kiyim ostida qulay mikroiqlimni ta'minlashi kerak.

Kiyim o'zining asosiy himoyaviy funksiyasini bajarishi uchun muayyan issiqlik qarshiligiga, havo o'tkazuvchanlikka, gigroskopiklikka, paketning muayyan konstruktiv tuzihshiga ega bo'lishi shart.

Gigiyenik moslik ko'rsatkichi kiyim ostidagi havo almashinuvi darajasini bildiradi.Masalan, yuqori haroratli tashqi muhitga mo'ljallangan kiyimning gigiyenik ko'rsatkichlari gazlamaning gigiyenik xususiyatlariga bog'liq. Ushbu ko'rsatkich o'z navbatida kiyim paketining havo o'tkazuvchanligiga, bug' o'tkazuvchanligiga hamda kiyimning ratsional konstruktiv yechimiga bog'liq.

Ayni ratsional konstruktiv yechim yordamida materiallarning o'tka-zuvchanlikka oid nuqsonlarini kompensatsiya qilish mumkin.

Psixofiziologik ko'rsatkichlar guruhi kiyimning odamga xos ruhiy, va fiziologik xususiyatlariga moshgini aniqlaydi.|Bu ko'rsatkichlarga kiyim oson kiyilishi va yechilishi, kiyim ayrim elementlarining qulayligi hamda kiyimning massasi kiradi.

## 1.5. Ijodiy manbani tanlash va asoslash

Ijodiy jarayon-bu mazmun va shakl birligini qidirishdir. Ayrim hollarda ijodiy vazifa yechilganda, an'anaviy usullarni qo'llanishi qiziqarli yechimni bermaydi.Shuning uchun loyixalash jarayonida dizaynerlarning ijodiy faoliyatini intensivifikasiyalashga yo'naltirish mumkindir.Butun jahon dizaynerlari barcha sohalarida davrga munosib yangi mahsulotlarni yaratish uchun yangi go'yalarni har qadamda qidirshadi.buyumlarni ishlab chiqarish firmalari dizaynerlardan qiziqarli g'oyalani emas, balki ajoyib yangicheksiz, g'oyalani talab qilishadi.Bu esa ijodiy fantaziyani yanada jadallashtirish usullarini izlanishiga sabab bo'ladi.

Dizayner kosyum kolleksiyasini yaratishda avval ijodiy manbaaga asoslanadi. Har bir dizayner,o'z kolleksiyasini yaratishda ijodiy manbaa sifatida har qanday tabiiy hodisalardan tortib, oddiy bir oshxona buyumigacha, tabiiy muhitning turli elementlarigacha foydalanishi mumkin.Aytaylik u dunyoda sodir bo'layotgan voqea, musiqa,rangtasvir,adabiyot, balet, teatr, kino etnik mavzular, muhandislik inshootlari, hattoki mashina detallari ham bo'lishi mumkin. .





18-rasm.19-rasm.



20-rasm.

Oddiy bir  amaliy san'at asarlarining bir necha turlarini, (shisha, tosh,yog'och, metall,keramika va b.) tayyorlanishini, musiqa asboblarining turlarini, yer fakturasidan tortib yomgir shamolgacha ijodiiy manba sifatida foydalanishi ham mumkin ekan

Ushbu bitiruv malaka ishida ijodiy manba sifatida kristall tog` jinsi tanlandi. Kristall tanlanishidan asosiy maqsad uning serjilo va bir-birini takrorlamas o`ziga xos shaklidir ushbu shakllarni 18-19 rasmlarda ko`rish mumkin. Kristal- tog` billuri hisoblanadi, asosan tog` yon bag`rlarida uchraydi, uning o`ziga xususiyatlari rangining betakrorligidir 20-va 21rasmlar bunga yaqqol misoldir, va uning yana bir ajoyib xususiyati  vaqt o`tgan sayin o`z shaklining o`zgarib borishidir.



21-rasm

## 2.Loyiha qismi

### 2.1 Eskiz loyihalash




















sliders with fixed pull tabs
double zip openings



**2.1.1 O`smir qizlar plashida kompozitsion yechim va ranglar uyg`unligi**

Ranglarni odam psixologiyasiga ta'siri. Ranglar oʻzini tutishiga juda katta ta'sir etadi.Ranglar bizning kayfiyatimizni koʻtarishi yoki uning aksi tushirishi ham mumkin. Rangning bunday xususiyatlaridan foydalanib biz xar hil hayotiy hodisalarni oʻzimizning foydamizga oʻzgartirishimiz mumkin. 1750yilda 1200rang birikmalari mavjud boʻlgan hozirgi vaqtga kelib ular soni 10mln. yetdi.

Psixologiyada ham ranglarga alohida e'tibor qaratiladi.
Psixologiyada ranglar 2hil guruhga boʻlinadi: birinchisi iliq ranglar (qizil, sariq, olov rang va oq rang); ikkinchi guruhga sovuq ranglar kiradi( koʻk, qora va binafsharang) yashil rang ikkala guruhga ham kirishi mumkin.Har bir rangning alohida ramziy ma'nosi bor.

Oq rang - toza rang, tozalikni belgisi, oq bulutlar, osmondagi eruğlik va ruhan poklik rangi.Tarixni qaraydigan boʻlsak oq rang qadimdan ilohiy rang boʻlib xudoning rangi deb atalgan.
Sariq rang-ranglar orasida inson koʻziga birinchi boʻlib tashlanadi va seziladi.U insonga yaxshi ta'sir etib, boshqa ranglarga nisbatan koʻproq e'tiborni tortadi.

Olov rang- (oranj) qizil rangga oʻxshab quvvatni koʻpaytiradi va ishtahani oshiradi. Lekin magazin intererida uni asosiy rang sifatida emas,balki yordamchi qoʻshimcha rang sifatida ishlatish yaxshi samara beradi.

Qizil rang-issiq ranglar gammasida eng kuchli ta'sir kuchiga ega rang hisoblanadi .Bu rang ta'sirida insonning nafas olish tezlashadi, mushaklari tortishadi va yurak urishi tezlashadi

Oq rang - toza rang, tozalikni belgisi, oq bulutlar, osmondagi eruğlik va ruhan poklik rangi.

Tarixni qaraydigan boʻlsak oq rang qadimdan ilohiy rang boʻlib xudoning rangi deb atalgan.

Koʻk rang - doimiylik va xaqiqat rangi,osmon va dengiz rangi.Koʻk rang osmon rangi boʻlgani uchun, bu rangni juda uzoqdagi kosmos bilan boğlaymiz.Bu rang tinchlik va osuddalik ramzi hisoblanadi.8 -10 mln.ranglar ichidan inson koʻzi

kơproq    shil  rangni  kơrar    kan.  shil  rang  erda  birinchilardan    paydo bơlgan.Insonning atrofini ơrab turgan ơsimliklar asosan  shil rangda bơlgan

Liboslar to`plami qismlari, silueti, proprtsiyalari, rangi va bezagining o'zaro mosligi va organik bir-biriga bog`liqligi bo'yicha birligini nazarda tutadi. U kiyim, poyabzal, bosh kiyim, soch turmagi, bezaklar, qo'shimchalar va grimdan iborat yahlit butunlik bo'lib, hech qanday o'zgarishlarni ko'zlamaydi. har qanday elementni qo'shish yoki birortasini olib qo'yish uning yahlitligini barbod etadi.

Ushbu liboslar to`plamida tanlangan mato o`ziga xos ranglari bilan o`smir yoshlar etiborini tortadigan yorqin ranglar tanlandi. Kiyimlarda rang tanlashda ranglarning o`zaro mosligiga va kontrastligiga etibor berildi va xar bir  kiyimda ikki turdagi ranglardan foydalanildi.





### 2.1.2 O`smir qizlar liboslar to`plami modellarining eskizlarini toza nusxani rangda ishlab chiqish

















### 2.1.3 O`smir qizlar  liboslar to`plami modellar tafsifi

**Asosiy taklif model-1**

Baxor- kuz mavsumiga mo`ljallangan o`smir qizlar plashi.

Silueti yopishgan,  shakli X- simon.  Matosi loklangan sun`iy charm.

Bir bortli o`tqazma yengli.Ustki kiyim astarli.Buyum uzunligi tizzadan tepada.

Ort bo`lak transformatsiyalanadigan  va 3 qismdan iborat: 1-koketka qismi, 2-ort bo`lak tepa qismi 3-ort bo`lak pastki qismi va bel qismida baskadan iborat.Ort bo`lak tepa va pasti o`rta chok va rel`efga bo`lingan.

Old bo`lak  transformasiyalanadigan  va 3 qismdan iborat. Old bort  ishlovi planka taqilmasi knopka. Old bo`lak tepa pastki qismi rel`ef bilan bog`langan. Uzun yengli ikki chokli yelkada yeng o`mizida bezak qism qanot shaklida  ushbu shakl molniya tasmasi orqali yechiladi.

Bel qismida joylashgan baska molniya tasmasi orqali yechib olinadi.

Ushbu kiyim tik yoqali.

**Taklif model-2**

Baxor- kuz mavsumiga mo`ljallangan o`smir qizlar plashi.

Silueti yopishgan, shakli X- simon.

Matosi loklangan sun`iy charm.

Bichimi bir bortli o`tqazma yengli.Ustki kiyim astarli.Buyum uzunligi tizzadan tepada.

Ort bo`lak transformatsiyalanadigan va 3 qismdan iborat: 1-koketka qismi, 2-ort bo`lak tepa qismi 3-ort bo`lak pastki qismi va bel qismida baskadan iborat.Ort bo`lak tepa va pasti o`rta choksiz va rel`eflarga bo`lingan.

Old bo`lak transformasiyalanadigan va 3 qismdan iborat. Old bort taqilmasi knopka. Old bo`lak tepa pastki qismi rel`ef bilan bog`langan. Old bo`lak bel qismida rel`ef chizig`idan boshlanuvchi baskadan iborat. Ushbu madel bel qismidan molniya tasmasi orqali ikki qismga ajraladi.Uzun yengli ikki chokli yengning to`rtdan uch qismida bezak qism qanot shaklida.

Ushbu kiyim ko`tarma qaytarma yoqali.

## Taklif model-3

Baxor- kuz mavsumiga mo`ljallangan o`smir qizlar plashi.

Silueti yopishgan, shakli X- simon. Matosi loklangan sun`iy charm. Bichimi o`tqazma yengli bir bortli.Ustki kiyim astarli.Buyum uzunligi tizzadan tepada.

Ort bo`lak transformatsiyalanadigan va 2 qismdan iborat: 1-koketka qismi 2-ort bo`lak pastki qismi va bel qismida rel`ef chizig`ida baskadan iborat.Ort bo`lak o`rta choksiz va rel`eflarga bo`lingan.

Old bo`lak transformasiyalanadigan va 2 qismdan iborat. Old bort taqilmasi knopka. Old bo`lak rel`ef bilan bog`langan. Old bo`lak bel qismida rel`ef chizig`idan boshlanuvchi baskadan iborat.

Uzun yengli ikki chokli yelkada yeng o`mizida bezak qism qanot shaklida.Ushbu madelda yeng molniya tasmasi orqali yechib olinadi.

Ushbu kiyim kapyushonli, kapyushon molniya tasmasi orqli, yoqa o`mizidan 6 sm tepada yechiladi va buyumda tik yoqa hosil bo`ladi.

**Taklif model-4**

Baxor- kuz mavsumiga mo`ljallangan o`smir qizlar plashi.

Silueti yopishgan, shakli X- simon. Matosi loklangan sun`iy charm. Bichimi o`tqazma yengli ikki bortli.Ustki kiyim astarli. Buyum uzunligi bo`ksadan 20 sm pastda.

Ort bo`lak transformasiyalanadigan va 3 qismdan iborat: 1-koketka qismi, 2-ort bo`lak tepa qismi 3-ort bo`lak pastki qismi va bel qismida baskadan iborat.Ort bo`lak tepa va pasti o`rta chokli va rel`eflarga bo`lingan.

Old bo`lak transformasiyalanadigan va 3 qismdan iborat. Old bort ishlovi planka taqilmasi knopka. Old bo`lak tepa pastki qismi rel`ef bilan bog`langan. Old bo`lak bel qismida baskadan iborat. Ushbu madel bel qismidan molniya tasmasi orqali ikki qismga ajraladi.

Uzun yengli ikki chokli.Ushbu kiyim kapyushonli, kapyushon knopka yordamida yechib olinadi.

## Taklif model-5

Baxor- kuz mavsumiga mo`ljallangan o`smir qizlar plashi.

Silueti yopishgan, shakli X-simon. Matosi loklangan, sun`iy charm.

Bichimi o`tqazma yengli bir bortli.Ustki kiyim astarli.Buyum uzunligi tizzadan tepada.

Ort bo`lak transformasiyalanadigan va 3 qismdan iborat: 1-koketka qismi, 2-ort bo`lak tepa qismi 3-ort bo`lak pastki qismi va bel qismida baskadan iborat.Ort bo`lak tepa va pasti o`rta choksiz va rel`eflarga bo`lingan.

Old bo`lak transformasiyalanadigan va 3 qismdan iborat. Old bort taqilmasi knopka. Old bo`lak tepa pastki qismi rel`ef bilan bog`langan. Old bo`lak bel qismida baskadan iborat. Ushbu madel bel qismidan molniya tasmasi orqali ikki qismga ajraladi.Uzun yengli ikki chokli yengning to`rtdan uch qismida bezak qism qanot shaklida.

Ushbu kiyim tik yoqali.



